

## USTOZLARNI QADRLAGAN DAVLAT YUKSALADI

Jo'rayev Avazbek Dilshodbek o'g'li  
Farg'ona viloyati yuridik texnikumi o'quvchisi  
Telefon: +998908451200  
E-mail [jurayevxofiz@gmail.com](mailto:jurayevxofiz@gmail.com)

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada muallif yurtimizdagi o'qituvchilarning beqiyos o'rni haqida qisqacha fikr yuritib, o'qituvchilarni qadrlash kerakligi, ularni himoya qilish davlat tomonidan qonun bilan tartibga solish zarurligi, bu borada Vatanimiz Konstitutsiyamizda alohida modda bilan tartibga solganligi haqida fikrlar yuritgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston bu masalada qanday harakat qilmoqda. Ulug' xalqimizning qadriyatleri va ustozlarga bo'lgan mehr-u muhabbati, o'zbeginning dunyoviy fan o'qituvchilari va islomiy ilmlari o'qituvchilariga bo'lgan yuksak bahosining ahamiyatini.

### Açıklama:

Yazar bu yazıda ölkemizde öğretmenlerin eşsiz rolünü, öğretmenlere değer verilmesi gerektiğini, korunmalarının devlet hukukuyla düzenlenmesi gerektiğini kısaca yorumlamış ve bu konuda ölkemiz Anayasası bunu düzenlemektedir.

**Anahtar kelimeler:** Özbekistan bu konuda nasıl davranıyor? Yüce milletimizin değerlerini ve öğretmen sevgisini, Özbekim'in laik ilim öğretmenlerine ve İslami ilim öğretmenlerine olan yüksek takdirinin önemini anlatmak.

### Abstract:

In this article, the author briefly commented on the incomparable role of teachers in our country, the need to value teachers, the need to regulate their protection by the state law, and in this regard, the Constitution of our country regulates it with a separate article.

**Key concepts:** How is Uzbekistan acting in this matter? To explain the importance of our great nation's values and love for teachers, Uzbekim's high appreciation of teachers of secular sciences and teachers of Islamic sciences.

Dunyoning hech bir davlatida o'qituvchiga hurmat-ehtirom bizdagidek emas. Chunki hech bir davlatda o'qituvchilar kuni umumxalq bayrami va dam olish kuni deb e'lon qilingan emas. Lekin bu ehtirommi yoki «ehtiom» Yaqin-yaqingacha o'qituvchilarimiz o'zlariga atalgan bayram 1- oktabrda paxta dalasida mehnat qilishar «oq oltin»ni tez-nobud qilmasdan yig'ishtirib olishda kamarbasta bo'lishardi. Ulardan boshqa hamma dam olar edi bu kunda. Bundan ortiq xo'rlash bo'lmas kerak dunyoda. O'qituvchilarning dalalarda hosil yig'ishtirishda, ko'cha-ko'ya obodonchilik ishlarida ishlayotganini ko'rgan yosh avlod ularni hurmat, bu sharafli kasbga havas qilarmidi. Maktablardagi ta'lim sifati-chi? Aynan mana shunday holatlar hukmron bo'lgani uchun ne ne zabardast o'qituvchilar bu kasbni tashlab ketmadimi? Albatta ko'pchilik o'qituvchilik kasbidan bezigan edi. Lekin hozirgi davrga kelib o'qituvchilar o'z kasbiy ishlarini qilyabdilar. Yangi O'zbekistonda o'zgarishlar judda ham ijobiy natijaga erishdi. Ushbu vaziyatga yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizdan o'qituvchilarimiz uchun alohida modda belgilab qo'yildi.

Ustozlarimiz haqida olimlardan ajoyib, oltinga teng so'zlarni yodga olamiz.

Muallim so'zi go'yo oqar suv erur,

Suv oqsa, yer uzra ko'p ne'mat unur. - Yusuf Xos Hojib

Agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir.-

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmiş ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado, oning haqin yuz ganj ila. - Alisher Navoiy

Ustoz-muallimsiz qolganda zamon?

Nodonlikdan qaro bo'lardi zamon. -Abdurahmon Jomiy

Hayot yo'lida birinchi masala - maktab masalasidir.-Fitrat

Sizdan boshlanadi asli tafakkur,

Munis muallimlar, sizga tashakkur!-Abdulla Oripov

Chinakam shogird bor narsalar negizida mavhum narsalar rivojini o'rganadi va shu yo'l bilan ustoziga yaqinlashib boradi.-Gyote



O'qituvchining butun fikri o'quvchilarida, o'zi sochgan urug'larning o'sishidadir.-

D. Mendeleyev

Ustoz, muallimsiz qolsa gar zamon,

Nodonlikdan qora bo'lardi jahon.-Abdurahmon Jomiy

Biroz tariximizga yuzlansak to'g'ri bo'lardi O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, muallimlar ham faoliyat ko'rsata boshladi. Bu hol, ayniqsa, jadidchilik harakati avj olgan kezlarda ancha keng yoyildi. O'qituvchilar saviyasining oshganligi millat ruhiyatida uyg'onish bo'lishiga, taraqqiyotning bir qadar tezlashuviga olib keldi. O'qituvchi oldida turgan vazifalar va uning mavqei jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha bo'lgan. Jamiyat gullab yashnagan davrda unga e'tibor yuksak bo'ddi yoki o'qituvchining mavqei ko'tarilgani uchun jamiyat rivoj topdi. Oktabr to'ntarishi amalga oshgandan so'ng va sho'rolarning o'z oldiga qo'ygan ommani yoppasiga savodli qilish vazifasini bajarish uchun Turkistonda ham tizimli ravishda o'qituvchi tayyorlash yo'lga qo'yildi. Chunki butun o'lka bo'ylab ochilgan maktablarda ishlaydigan mutaxassislar kerak edi. Shu sababli o'qituvchilar sho'ro hokimiyatining dastlabki yillarida urushga olinmaydigan bo'ldi. Ta'lim tizimi ham mafkuraga bo'ysundirilgan sho'ro davrida o'qituvchilar hukmron siyosatni o'tkazuvchi kuchga aylantirildi. Ular bevosita ta'limtarbiyaga tegishli bo'lmagan turli g'oyaviy-siyosiy hamda tashkiliy ishlarga me'yorida ortiq jalb etildi. O'ziga xos bo'lmagan ishlar bilan shug'ullanish o'qituvchilar obro'sining pasayishiga olib keldi. Sobiq Ittifoq tarkibidagi boshqa respublikalar singari O'zbekistonda ham 1936-yil 10 apreldan SSSR MIK va XKS tomonidan shaxsiy o'qituvchi unvoni ixtisosligi joriy etildi. O'shandan boshlab ped. o'quv yurtini bitirgan va davlat imtihoni topshirgan shaxsga rasmiy tarzda o'qituvchi ixtisosligi beriladigan bo'ldi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'qituvchi tayyorlashga alohida e'tibor berila boshlandi. Bu „Ta'lim to'g'risida“gi qonun (1997-yil 29 avgustda qabul qilingan) va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o'z aksini topdi. O'zbekistonda o'qituvchilar universitetlar, ped. o'quv yurtlarida tayyorlanadi. O'qituvchi o'z pedagogik faoliyati jarayonida ilmiy bilimlarni egallab, pedagogik qobiliyatini shakllantirib boradi. Mamlakatda o'qituvchilar malakasini oshirish tizimi joriy etilgan, har bir o'qituvchi ga o'qituvchilar malakasini oshirish intlarida bepul pedagogik va metodik yordam olish imkoniyati berilgan. Mamlakatda har yili 1-oktabrda „O'qituvchilar va murabbiylar“ kuni umumxalq bayrami sifatida nishonlanadi. Respublikada



„O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi“, „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan xalq ta‘limi xodimi“, „O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi“ singari faxriy unvonlar mavjud. O‘qituvchilarga maksimal darajada qisqa ish kuni va haq to‘lanadigan eng uzun mehnat ta‘tili belgilangan. Shuningdek, o‘qituvchilar uchun xalq ta‘limi va ped. gazeta va jur.lari, jumladan, o‘zbek tilida „Ma‘rifat“, rus tilida „Uchitelskaya gazeta“ („O‘qituvchilar gazetasi“) gaz.lari, „Xalq ta‘limi“, „Boshlang‘ich ta‘lim“, „Uzluksiz ta‘lim“, „Ta‘lim taraqqiyoti“, „Ta‘lim va tarbiya“, „Til va adabiyot ta‘limi“ jur.lari, pedagogik va metodik adabiyotlar nashr etiladi. 2002-2003-o‘quv yili boshida O‘zbekistondagi kunduzgi umumiy ta‘lim maktablarida 461,1 ming o‘qituvchi ishladi. Ulardan 5 kishi (M.Ismatova, M. Madaliyeva, M.Zokirov, V. Pak, A. Mahmudova) O‘zbekiston Qahramonidir (2005). Shuni aytish kerakki, o‘qituvchi alohida ijtimoiy hodisa bo‘lib, jamiyat a‘zolarining shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatgani uchun ham uning shaxslik sifatleri kasbiy fazilatlaridan muhimroq hisoblanadi. Chunki u jamiyatning buguni va ertangi kuni qiyofasini shakllantiradi. Shuning uchun ham o‘qituvchining professional jihatdangina yetuk bo‘lishi kifoya qilmaydi. Uning ma‘naviy olami o‘quvchilarga singdirilishi ko‘zda tutilgan ezgu insoniy sifatlarga to‘yingan bo‘lishi kerak. O‘qituvchilar tayyorlanadigan o‘quv yurtlarida ayni shu jihatga alohida e‘tibor qaratiladi.

Hozirgi pedagogika fani o‘qituvchining amaliyotchilik, tadqiqotchilik, tashkilotchilik, vositachilik, ijrochilik singari vazifalari borligini qayd etadi. Ana shu vazifalarni to‘la uddalaydigan o‘qituvchigina bugungi yosh avlodning barkamol shaxslar sifatida shakllanishiga ta‘sir ko‘rsata oladi. Istiqloq davri o‘qituvchilarida ana shunday xususiyatlarni qaror toptirish mamlakat taraqqiyotini ta‘minlash omilidir.

O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida O‘qituvchilarni himoya qilish maqsadida alohida modda belgilab qo‘yildi.

52-moddada shunday belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma‘naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e‘tirof etiladi.

Davlat o‘qituvchilarning sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.



Yuqorida aytganimdek o'qtuvchilarni har xil ishga jalb etish qonunan taqiqlanadi. Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. Prezident qarori ham davlat o'qtuvchilarga bo'lgan e'tiboridandir.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

So'zimiz yakunida aytish mumkinki, davlatimiz o'zining konstitutsiyada belgilangan normalardan, jumladan o'qtuvchilarimizni himoya etish masalasi belgilandi. himoya vositalarini ham kuchaytirganligi bu juda quvonchlidir. Ustoz ham ota ona kabi o'zini qiynab saboqlar o'rgatadi. Vatanimizda o'qtuvchilarimizning bilim salohiyati, alohida o'rin olgan. Davlatimiz har yilning 1-oktyabrida o'qtuvchi va murabbiylar bayramini nishonlashga sharoit yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

Barkamol avlod orzusi, T., 1998; O'zbek pedagogikasi antologiyasi [tuzuvchilar K. Hoshimov, S.Ochil).

1—2j.lar, T., 1995, 1999; Pedagogik izlanish, T.,

1990; Yo'ldoshev Q., O'qituvchi kitobi, T., 1997. Qozoqboy Yo'ldoshev.

O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 30.04.2023.

Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. Prezident qarori. <https://www.lex.uz/>